


Xorazm viloyatida 2018-yil yanvar-avgust oylarida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi.

Mamlakatimizda 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirilishi bilan bir qatorda sanoat sohasida ham Davlatimiz tomonidan mavjud korxonalar quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, yangidan tashkil etilayotgan korxonalarga imtiyozlar yaratib berish natijasida Xorazm viloyatida 2018-yilning yanvar-avgust oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3329,4 mlrd.so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,4 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi 2018 yil yanvar-avgust holatiga (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)




- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi ko'proq qayta ishlash sanoatiga to'g'ri kelib, uning ulushi 95,714 foizni tashkil etdi (2017-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati 116,1 foiz). Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 0,001 foizni (o'sish sur'ati 108,7 foiz), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 3,502 foizni (o'sish sur'ati 77,1 foiz), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish ulushi 0,783 foizni (o'sish sur'ati 156,5 foiz) tashkil qiladi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida o'sish darajasi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani (2017-yil yanvar-avgust oyilarga nisbatan 124,6 foiz), Shovot tumani (121,2 foiz), Qo'shko'pir tumani (116,0 foiz) va Urganch tumani (109,8)ga o'sganini ko'rish mumkin.

2018-yil yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan foizda)



2018-yil yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi to'g'risida (mlrd.so'mda)




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida yuqori bo'lgan Xazorasp tumani, Urganch shahri, Xonqa va Bog'ot tumanlari xissasiga to'g'ri keladi.

Xorazm viloyatida asosiy turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish.
(natura ko'rishida)

Mahsulot turlari	<i>2018 yil yanvar-avgust</i>	<i>2017 yil yanvar-avgust</i>	<i>O'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
Gidro elektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln kVts	112,8	433,4	26,0
Issiqlik energiyasi – ming Gkal.	87,5	63,1	138,7
“Damas” - dona	19768	15134,0	130,6
“Orlando” – dona	433	266	162,8
Yuk avtomobillari – dona	4849	2021	2,4 m
Aroq – ming litr	944,0	1084,0	87,1
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr	11,6	12,6	91,9
Tabiiy oq va qizil desert uzum vinolari – ming litr	820,0	810,0	101,2
Yumshoq bug'doy va spelta uni – tonna	48808,1	46082,9	95,1
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar – tonna.	119,3	244,2	38,1
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 gr. (buxanka) – tonna	1563,7	2099,1	74,5
Milliy non (yopgan non) – tonna	294,8	506,5	58,2
Tozalangan o'simlik yog'i – tonna	14274,0	16826,0	84,8
Xo'jalik sovuni – tonna	6038,0	5364,0	112,6
Paxta tolasi –tonna	44576,0	50334,0	88,6
Paxta chigiti-tonna	69103,0	77154,0	89,6
Paxta chigiti (lint)-tonna	3547,0	4342,0	81,7

2018-yil yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 42,2 foiz, Urganch shahri 24,8 foiz, Xonqa 6,6 foiz, Bog'ot 6,1 foiz, va Shovot tumani 4,9 foizni tashkil qiladi.

2018-yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish.

Iqtisodiy faoliyat turlari	<i>mlrd.so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	3329,4	114,4
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	0,02	108,7
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,02	108,7
Qayta ishlash faoliyati	3186,7	116,1
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	620,9	101,4
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	133,7	114,1
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	663,3	104,2
Kiyim ishlab chiqarish	43,4	180,5
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	4,8	104,4

Iqtisodiy faoliyat turlari	<i>mlrd.so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
Yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	2,9	104,1
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	9,4	104,2
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,5	108,0
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,03	109,6
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	6,8	107,5
Asosiy farmasevtika	4,7	108,1
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	15,7	109,4
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	108,5	105,8
Metallurgiya sanoati	10,4	109,6
Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	87,0	132,5
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,01	108,2
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	13,4	106,2
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	88,4	110,1
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	1272,6	135,0
Mebel ishlab chiqarish	13,8	104,9
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	78,5	94,3
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	10,5	95,5
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	116,6	77,1
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	26,1	156,5
Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish	2237,4	119,2
<i>shu jumladan:</i>		
oziq-ovqat tovarlari	578,5	106,2
nooziq-ovqat tovarlari	1638,0	125,0


2018-yil yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.
(mlrd. so'm)




Viloyatda 2237,4 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2017-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 119,2 foizni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi
(jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)

2017 yil yanvar-avgust




2018 yil yanvar-avgust




- Nooziq-ovqat mahsulotlari
- Oziq-ovqat mahsulotlari

Shahar va tumanlarda 578,5 mlrd.so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 1638,0 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari (2017-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 106,2 foiz va 125,0 foiz) ishlab chiqarildi.


**2018-yil yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.
(foizda)**



2018-yil yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



2018-yil yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
“Sanoat statistikasi” bo’limi
Nashr uchun ma’sul: K.Kuryazov
Aloqa telefoni (0362) 224-64-99